



ESHITISHNING BUZULISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

*Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti
1-bosqich talabasi;
Usmonova Sarvinoz Akramjon qizi
Ilmiy raxbar: Maxsus pedagogika kafedrası
o'qituvchisi; Mamatisayeva Surayyo Axmadjon
qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233889>

Annotatsiya; Ushbu maqolani yozishdan maqsad eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ko'plab qulayliklar va ularga yordam qo'lini cho'zish va eshitishda kamchiligi boslanganlarning turlari va ularni klinik sabablari hamda korishni pasayishi haqida malumot berish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar; Eshitish nuqsoni, ortirilgan eshitish kamchili muammosi, quloqni tuzilishi, nutqning rivojlanishi, o'qitish tartibi, maxsus ta'lim.

Quloq uchta asosiy qismdan iborat:

1. Tashqi quloq – quloq suprasi (qobig'i) va tashqi eshituv yo'lidani iborat. Tovush to'liqlarini qabul qiladi va ularni quloq pardasiga yo'naltiradi. 2. O'rta quloq – quloq pardasi va eshitish suyakchalarini (bolg'acha, cho'michcha, uzangi) o'z ichiga oladi. Tovush tebranishlarini kuchaytirib, ichki quloqqa uzatadi. 3. Ichki quloq – labirint deb ataladi. Unda eshitish ("ulita") va muvozanat organlari joylashgan. Tovush tebranishlarini nerv impulslarga aylantirib, miya orqali eshitishni ta'minlaydi. Oldinlari 20 yoki 30 yillar ilgari eshitishda nuqsoni bo'lganlarning soni bugungi kundagichalik ko'p sonni tashkil qilmagan edi. Bugunga kelib eshitishda nuqsonlar dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Eshitishda nuqsoni bo'lganlar 2 turga bo'linadi. Birinchisi tug'ma ikkinchisi orttirilgan bo'lishi mumkin. Tug'ma sabablari

- Genetik omillar
- Homiladorlik davridagi asoratlar
- Tug'ulish jarayonidagi omillar

Genetik omillar: bu omillar bu hozirgi kunda juda ko'plab uchraydi masalan oilada eshitish bor inson bo'lsa bu omil nechachidir avlodiga ham o'tishi kuzatiladi keyingi omil bu qarindoshchiligi bo'lgan yoshlarni bir biri bilan turmush qurishidir. Bunda ham juda ko'plab muammolar kelib chiqishi mumkin masalan bolada har hil kasalliklar Daun sindromi, Shershevski terneri, Ushers sindromi kabi yana bir qancha kasalliklar kelib chiqish havfi bor yana onaning va bo'lajak otaning voyaga yetishligi juda ahamiyatli holatdir chunki yosh qizlar uchun homiladorlik juda xavfli bo'lishi mumkin, ularning organizmi hali to'liq rivojlanmagan. Bu ona va bola sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'diradi. Voyaga yetmaganlar orasida tug'ruqdagi o'lim darajasi kattalarga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. O'zbekistonda erta turmush qurishga oid qonuniy me'yorlar Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida aniq belgilangan. Unga ko'ra, nikoh yoshi qizlar va yigitlar uchun kamida 18 yosh etib belgilangan.

Homiladorlik davridagi asoratlar: Virusli, infeksiyali kasalliklar (qizamiq) homiladorlikda spirtli ichimliklar yoki dorilarning nojo'ya ta'siri, gipoksiya (homiladorlik davrida havo yetishmasligidan aziyat chekish)

Tug'ulish jarayonidagi omillar: chaqaloqni rivojlanishdga noto'liqligi, tug'ulish paytidagi jarohatlar, tug'ulishdagi afiksiya (bo'g'ilish) shu kabi omillar bolaning to'laqonli rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.



Ortittirilgan sabablari; Infeksiyon kasalliklar, travmalar, yoshga oid o'zgarishlar, atrof-muhit omillari, havo ifloslanishi yoki allergenlar natijasida quloqni zarar ko'rish, quloqning strukturaviy o'zgarishlari, quloq ichidagi o'simtalar yoki strukturaviy anomaliyalar.

Xulosa; Ushbu sabablarni bilish eshitish muammolarining oldini olish yoki erta davolash choralarini ko'rishda muhim ahamiyatga ega. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus e'tibor va qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Ularning to'laqonli rivojlanishi uchun erta tashxis, maxsus pedagogik yondashuvlar, logopedik mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhitda bunday bolalarga nisbatan to'g'ri munosabat shakllantirish, ularni jamiyatga moslashtirish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy faolligi va mustaqil hayot kechirishi ta'minlanadi. Shu boisdan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Logopediya (M. Ayupova).
2. Logoped (Qahramonova M).
3. Logoped Jo'raxo'jayev Muhammadaziz. mutahassislikka kirish darsligi.
6. Koroleva I.V. Kar bolalar va kattalami koxlear implantatsiya qilish (elektrod eshitish protezlari). - SPb.: KARO, 2008
7. Mamarajabova Z.N. Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasi- Toshkent:
8. Kuzmicheva E.P., Yaxnina S.Z. Kar bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish. - M., 2003 yil.
9. Koroleva I.V. Koxlearnaya implantatsiya gluxix detey i vzroslibx (elektroldnoye protezirovaniye sluxa) SPb.: KARO, 2009.. (15-19b).
5. Mamarajabova Z.N. Koxlear implantli eshitish moslamalari o'rnatilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasi- Toshkent: AktivPrint,